# “O’zbegim ayoli-2020” tanlovi g’oliblari taqdirlandi

26-fevral kuni “O’zbegim ayoli-2020” tanlovi g’oliblarini taqdirlash marosimi tashkil etildi. G’oliblar bir necha nominatsiyalar bo’yicha taqdirlandi. O’zR FA Genomika va bioinformatika markazi Transgenomika va to’qimalar kulturasi laboratoriyasi mudiri Xurshida Ubaydullayeva “Ziyoli ayol” nominatsiyasi bo’yicha g’oliblikni qo’lga kiritdi.




Olima gen injeneriyasi sohasida tan olingan. Biologiya fanlari doktori. 100 dan ortiq ilmiy ishlar, ilmiy maqolalar va ixtirolar muallifi.

Xurshida Ubaydullayevani ushbu mukofot bilan O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi nomidan muborakbod etamiz va kelgusidagi faoliyatlariga muvafaqqiyatlar tilaymiz!